



INTERNET TILI VA UNING O'ZBEK TILIGA TA'SIRI

*Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy Universiteti
Filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili
1-bosqich talabasi
Suyunova Zarnigor*

Annotatsiya: Ushbu maqolada XXI asrda internet va ijtimoiy tarmoqlar insonlar o'rtasidagi muloqot shaklini tubdan o'zgartirib borayotganligi tahlil qilinadi. Shuningdek, "internet tili" deb ataluvchi yangi nutq shakli paydo bo'lib, u o'zbek tilining leksik, grammatik va uslubiy qatlamlariga ta'siri o'rganilib, til me'yorlarini saqlash bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: internet tili, texnologiya, ijtimoiy tarmoqlar, kommunikatsiya, yozma madaniyat.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar va internetning jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalariga chuqur kirib bordi. Mazkur jarayon natijasida "internet tili" deb ataluvchi yangi nutq shakli vujudga keldi. Internet tiliga ta'rif beradigan bo'lsak, internet dunyoni monitor hajmida qisqartirib, odamlar o'z fikrlarini erkin ifodalash uchun 10 dyuymdan ortiq kichik dunyoda birlashtira oladigan bir to'rdir. Internetning maydoni keng bo'lib, u foydalanuvchilarga o'z fikrini bayon qilishda chegara bilmaydi. U asosan, tezkorlik, ixchamlik va soddalik tamoyillariga asoslanib, unda turli qisqartmalar, talaffuzga yaqin yozuvlar, chet tillaridan kirib kelgan so'zlardan foydalanish imkonini bersa-da, til me'yorlarining buzilishiga ta'sir ko'rsatmay qolmadi. Ijtimoiy tarmoqlar (Telegram, Instagram, Facebook, Tiktok va boshqalar), messenjerlar tili kundan kunga o'zgarib bormoqda, chunki bu sohalarda qisqalik, vaqt tejalishi asosiy mezon hisoblanadi. Shu sababli bugungi kunda ko'plab internet foydalanuvchilari qisqartmalar, emodzilar yoki kod-svitching orqali muloqot olib bormoqda. Bu so'zlarning ba'zilarini quyida ko'rib chiqishimiz mumkin:

Lekin = L-n

Kerak = Kk

Bo'lib = Bb

Yo'q = Yo

W = Sh harfining o'rniga qo'llaniladi.

C esa Ch harfining o'rniga qo'llanadi.

Bu esa asta-sekin rasmiy yozuvga ham singib borayotgani, hatto ayrim



dashlarda, insholarda hatto rasmiy hujjatlarda kuzatilayotgani xavotirli holatdir. Buning natijasida o'zbek adabiy til me'yorlari zaiflashmoqda. Yoshlar orasida imloviy savodxonlik pastligi, gap qurilishi bo'yicha kamchiliklar kuchaymoqda (masalan, kelayapman, o'rniga "kelayapman" emas, balki, kelayapman kabi). Devid Kristalning fikriga ko'ra, bu til o'zining leksik va uslubiy xususiyatlariga ega bo'lgan alohida submadaniyatga aylangan. U o'zining "Language and the Internet"

Nomli asarida harflarni to'g'ri tanlash, ularni e'tiborsizlik bilan qisqartirmaslik, matn yozishda savodli bo'lish muhimligini ta'kidlaydi. U shuningdek, matn yozish orqali savodxonlik oshishini, ya'ni, ko'p yozgan kishi ko'p o'qiydi, ko'p o'qigan kishi esa savodli bo'ladi, degan g'oyani ilgari suradi.

Tilshunoslik tadqiqotlariga ko'ra, internet tili zamonaviy o'zbek tilining rivojlanishiga bir qator ijobiy ta'sirlarini ham ko'rsatmoqda. Ayniqsa, bugungi kunda "blogger", "kontent", "onlayn", "veb-sayt", "podkast", "streaming" kabi so'z va atamalar o'zbek tilining lug'at tarkibiga singib, yangi tushunchalarni ifodalab kelmoqda. Bu holat tilning zamon bilan rivojlanayotganidan dalolat beradi. Bu borada A.Nurmonov hozirgi o'zbek adabiy tilidagi o'zgarishlar haqida so'z yuritarkan, chet tillaridan kirib kelayotgan so'zlardan foydalanish tilning tabiiy jarayon ekanligi, tilning tashqi ta'sirlar orqali boyib borishini tarixiy jarayon sifatida izohlaydi. Uning fikricha, har bir davr tilga o'z leksik qatlamini olib kiradi va bu hodisa tilning imkoniyatlarini kengaytiradi. Internet va raqamli texnologiyalar bilan bog'liq terminlarning o'zbek tiliga kirib kelishi ham zamonaviy ehtiyoj mahsuli bo'lib, tilning kommunikativ salohiyatini oshiradi. Shuningdek, ayrim tilshunoslarning internet muhitini milliy tillarning global makonga chiqishi uchun qulay platforma sifatida baholaydilar. Ularning fikricha, ijtimoiy tarmoqlar va bloglar orqali o'zbek tilida kontent yaratilishi tilning xalqaro maydonda ko'rinishini kengaytirib, uning nufuzini oshirishga xizmat qiladi. Bu jarayon o'zbek tilining faqat mahalliy muloqot vositasi emas, balki zamonaviy axborot tili sifatida shakllanayotganini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, internet tilining nazoratsiz va me'yorlarsiz qo'llanishi adabiy til, me'yorlarining buzilishi imlo va tinish belgilariga beparvolik, chet tillaridan kirib kelgan so'zlarning ortiqcha ishlatilishi kabi salbiy holatlarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, yoshlar nutqida bunday unsurlarning mustahkamlanib borishi til madaniyatining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun internet tilidan foydalanishda adabiy til me'yorlarini saqlash, nutq madaniyatini oshirish va yosh avlodni to'g'ri yozuvga o'rgatish muhim. Shu bilan birga Internet tili va adabiy o'zbek tili o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash orqali milliy tilning zamonaviy sharoitda barqaror va sog'lom rivojlanishiga erishish mumkin.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Devid Kristal. Language and the internet [2001]
2. Muxamedjanova Sh “ Xitoy tiliga Internet leksikasining ta’siri” buyuk ipak yo’lida umuminsoniy va milliy qadriyatlar: til, ta’lim va madaniyat Xalqaro ilmiy-amaliy materiallari. – Samarqand “SamDCHTI”, 2023. 186-bet.
3. A. Nurmonov ishtirokidagi darslik: “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”
4. ”Ilm fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va zamonaviy ta'limning o'rni hamda rivojlanish omillari “6-To’plam 3-son Iyun , 2025.
5. Internet ma’lumotlari.